

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI PhD ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

ORIFJONOVA GULRA‘NO RAVSHAN QIZI

**O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH
KESIMIDA (XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHI)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta‘mirlash
va saqlash**

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Orifjonova Gulra'no Ravshan qizi

O‘zbekiston muzeylari innovatsion rivojlanish kesimida (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) 5

Орифжонова Гулраъно Равшан қизи

Музеи Узбекистана в разрезе инновационного развития (конец XX – начало XXI века)..... 32

Orifjonova Gulrano Ravshan qizi

Museums of Uzbekistan at the section of innovative development (end of XX – beginning XXI century).....62

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI PhD ILMY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDA FAN DOKTORI (DSc) ILMY DARAJASINI BERUVCHI BIR
MARTALIK ILMY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

ORIFJONOVA GULRA‘NO RAVSHAN QIZI

**O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH
KESIMIDA (XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHI)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta‘mirlash
va saqlash**

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori dissertatsiyasi (DSc) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Tar221. raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.history-museum.uz>) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portal www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ismailova Jannat Xamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Almeyer Robert Valiyevich
tarix fanlari doktori

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlari doktori, professor

Salimov Orifjon Muslimovich
arxitektura fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 02/09 07.2020 Tar.70.03 raqamli ilmiy kengash asosida fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «28» mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Kichik majlislar zali.) Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-44-25; e-mail: info-historymuseum@academv.uz O'zbekiston tarixi davlat muzeyi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston tarixi davlat muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (191-P raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy.) Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «20» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «20» mart dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi.)



[Handwritten signature]

B.V.Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

[Handwritten signature]

D.B.Rasulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy koshji, t.f.f.d. (PhD), dotsent

[Handwritten signature]

R.E.Xoliqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi globallashuv sharoitida milliy o'ziga xoslik va boy tarixni zamonaviy ko'rinishda aks ettirishda innovatsion muzeylarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Muzeylarning innovatsion faoliyatiga oid tadqiqotlar olib borishi, tomoshabinlar diqqatini tez jalb etishi, marketingi o'sishi, raqamli texnologiyalar, ta'lim dasturlari, hamkorlik, interaktiv ekspozitsiyalar, ashyolarni saqlash, me'moriy yechim, onlayn platformalardan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlarini oshirish kabi vazifalar qo'yilmoqda. Jahonning yirik muzeylarida innovatsion g'oya va yechimlarni qo'llashga bo'lgan faoliyat, uning shakllanishi, rivojlanishi hamda tarixini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Dunyoning yetakchi tadqiqot markazlarida muzeylarning innovatsion faoliyati ularning ishlash shaklini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va keng auditoriya bilan samarali aloqada bo'lishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Muzeylarning innovatsion faoliyatini o'rganish uchun muzeylar faoliyatining samaradorligini, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini, yangi texnologiyalarni, metodlarni va xizmatlarni muzeylarda muvaffaqiyatli joriy etishga yo'naltirilgan strategiyalarni hamda madaniy merosni saqlash usullarini yaxshilashga oid masalalarning yechimi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Muzeografiya yo'nalishida har bir davlatning o'ziga xos bo'lgan imidji – tashrif qog'ozi rivojlanayotganini ko'rish mumkin. Bu bevosita tarix, milliy qadriyatlar va zamonaviylik, innovatsiya va texnika yutuqlarini qo'llashda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Qatar, Turkiya, Ozarbayjon va boshqa davlatlarning muzeografik tajribasi innovatsiyaga boyligi bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda yurtimizda muzeylar o'z faoliyatini zamonaviy talablar va imkoniyatlarga moslashtirishga intilgan holda ularda innovatsion yondoshuvga katta e'tibor bergan holda muzeylar, ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda muzeylarning innovatsion faoliyati dolzarb masala hisoblanadi, chunki zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan birga muzeylar ham o'z faoliyatini yangilash, rivojlantirish va tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga intilishmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasining¹ «Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar»ida madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish yo'nalishida ham muhim vazifalar belgilab berildi. Umuman olganda muzeylar faqatgina tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish emas, balki unga yangi, interaktiv va zamonaviy yondashuvlar kiritishga oid tadqiqotlar olib borilishi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ««O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-6600413//murojaat_sanasi_18.06.2023

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 30-maydagi «Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda 1019-son «2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali muzeylar rivojiga oid vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Bugungi kunda jahonning rivojlangan muzeylarida innovatsion loyihalarni qo'llash,

² Turkish flowers. Studies on Ottoman Art in Hungary. – Budapest: Hungarian National Museum, 2005. – 184 p.; Führer durch die archäologische Ausstellung des Ungarischen National museums: 400 000 v. Chr. – 804 n. Chr. – Magyar Nemzeti Múzeum, 2003. – 144 p.; <https://mnm.hu/en/murojaat> sanasi 18.06.2023; Azerbaijan state agriculture museum/Fotoalbom. – Baki: Elm və təhsil, 2016. – 71 p.; <https://demokrasiveozgurlukleradasi.com.tr/murojaat> sanasi 06.07.2023; <https://demokrasiveozgurlukleradasi.com.tr/muzeler/27-mayis-muzesi/> murojaat sanasi 06.07.2023; <https://demokrasiveozgurlukleradasi.com.tr/muzeler/adnan-menderes-muzesi/> murojaat sanasi 06.07.2023; <https://www.turkishmuseums.com/museum/detail/2298-ankara-15-temmuz-demokrasi-muzesi/2298/1/> murojaat sanasi 11.12.2024; <https://www.panoramikmuze.com/> murojaat sanasi 08.09.2023; <https://www.konyabilimmerkezi.com> // murojaat sanasi 14.07.2023; <https://www.millisaraylar.gov.tr/Lokasyon/13/Islam-Medeniyetleri-Muzesi> // murojaat sanasi 31.12.2024; <https://www.bursamuze.com/bursa-vakif-kulturu-muzesi> // murojaat sanasi 12.04.2023; <https://www.bursamuze.com/bursa-goc-tarihi-muzesi> //murojaat sanasi 22.11.2023; <https://www.azcarpetmuseum.az/murojaat> sanasi 11.12.2024; <https://heydar-alivev-foundation.org/ru/content/index/116/> murojaat sanasi 15.12.2024; <https://icomaz.az/az/da%C5%9F%20salnam%C9%99%20muzeyi/> murojaat sanasi 07.05.2023; <https://www.moma.az/ru/> murojaat sanasi 14.12.2022; Eyvazova Y. “Tarih ve kültür abidesi” fenomenine muzeal yaklasim. – Baki, 2017. – 64 b.; <https://qazexpocongress.kz/ru/nur-alem/> murojaat sanasi 31.01.2022; Музейная экспозиция (теория и практика, искусство и экспозиции и новые сценарии и концепции) // На пути к музею XXI века. – М.: Прогресс-Традиция, 1997. – 216 с.; Музей и новые технологии // На пути к музею XXI века. – М.: Прогресс-Традиция, 1999. – 216 с.; Именнова Л.С. Музей в глобальном мире: инновации и сохранение традиций // Известие 24/2011. – С. 34-38.; Шляхтина Л. М. Музейные инновации в ретроспективе музееведческих идей // Вопросы музеологии 1/2010. – С. 44-49.; https://rusmuseumvrm.ru/data/mediateka/muzeynaya_art-terapevticheskaya_praktika/index.php/ murojaat sanasi 16.06.2024; Дрезнина М.Г. Ребенок в пространстве музея. Музейные занятия по арт-терапии / Изд. 3-е, испр. и доп.; ред. Л.В. Никитина. М.: ГМИИ им. А.С. Пушкина, 2021. — 224 с.; Исмаилова Ж. Музей педагогикаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2011. – № 4.– Б. 3.; Ismailov A.F. O'zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O'zbekiston fanlar akademiyasi misolida). Tarix fan. dok. avtr. – Toshkent, 2023. – 69 b.; Миралиева Ш.А. Виртуал музейлар яратилишининг жахон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истиқболлари. Тарих фан. фалсафа док. автр.– Тошкент, 2019. – 54 б.; <https://shon-sharaf.uz/oz/> murojaat sanasi 31.12.2024; Ўзбекистон Республикаси ШОН-ШАРАФ Давлат музейи. – Тошкент: «Zamin nashr» нашриёти. 2021. – 316 б.; Курбонова Д.А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарих ва маданият ёдгорликлар. Тарих фан. ном. дисс...автореф. – Тошкент, 2009. – 30 б. О'sha muallif. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг

ekspozitsiya va ko'rgazmalarni yaratish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan Vengriya milliy muzeyi (Vengriya), ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirilgan Yassi oda – demokratiya va erkinliklar orolchasi, 27-may muzeyi, Adnan Menderes muzeyi, 15-iyul demokratiyasi muzeyi, Sulton Mehmet ro'yosi, Konya bilim markazi, Islom sivilizatsiyalari muzeyi, Vaqf madaniyati muzeyi, Migratsiya tarixi muzeyi (Turkiya), Geydar Aliyev markazi, Gilam muzeyi, Tosh solnomasi muzeyi, Boku zamonaviy san'at muzeyi, Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti (Ozarbayjon), Nur Olam muzeyi (Qozog'iston), Rossiya xalqaro turizm akademiyasi, Rossiya madaniyatshunoslik instituti, Sankt-Peterburg davlat madaniyat instituti, Rus davlat muzeyi, A.S.Pushkin nomidagi Davlat tasviriy san'at muzeyi (Rossiya), O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Shon-sharaf muzeyi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti (O'zbekiston) kabi muzeylar va ilmiy tadqiqot muassasalarining olib borayotgan ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga egadir.

Muzeylarda innovatsion loyihalarni qo'llash, innovatsion muzey, ekspozitsiya, ko'rgazmalarni yaratilishiga oid jarayonlarni o'rganish bo'yicha talaygina ilmiy natijalarga erishilgan: alohida davrga oid kolleksiyalarni ekspozitsiyaga qo'yishda individual tematik yondoshuv, arxeologik eksponatlarni namoyish etishning innovatsion jihatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar (Vengriya milliy muzeyi), mazkur davrga qadar mavjud bo'lmagan yangi ixtisoslik va mavzularda innovatsion muzeylar yaratish (Migratsiya tarix muzeyi, Turkiya), tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni muzeylashtirish va shu orqali turizmni rivojlantirish (Yassi oda – demokratiya va erkinliklar orolchasi, 27-may, Turkiya), raqamli texnologiyalar vositasida tomoshabinni o'tmishga sayohat qilishga undashga oid innovatsion loyihalar ishlab chiqilishi (15-iyul demokratiyasi muzeyi, Sulton Mehmet ro'yosi, Turkiya), noyob eksponatlar mohiyatini zamonaviy texnologiyalar orqali namoyish etishga oid innovatsion ekspozitsiyalar tatbiqi (Islom sivilizatsiyalari muzeyi, Vaqf madaniyati muzeyi, Turkiya) muzey konsepsiyasining muzey binosida aks etishiga oid tadqiqotlar, innovatsion muzey tushunchasining muzey binosi, ixtisosligi va konsepsiyasida aks etishi masalasi (Tosh solnomasi muzeyi, Boku zamonaviy san'at muzeyi, Ozarbayjon), bundan tashqari muzey binosi, ekspozitsiyasi, muzey fondlari, eksponatlarning restavratsiya va konservatsiya jarayonlari, tashrifchilar bilan ishlash dasturlari bolalar muzeyi misolida (Gilam muzeyi Ozarbayjon), muzey marketingini rivojlantirishda muzey do'konlaridagi innovatsion loyihalar tahlil qilingan (Geydar Aliyev markazi, Gilam muzeyi Ozarbayjon), tarixiy-madaniy yodgorliklarda innovatsion loyihalarni qo'llash bo'yicha (Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti, Ozarbayjon) XXI asr muzeylarini konsepsiyasi, ekspozitsiyasi va

шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фан. док. дисс. –Тошкент, 2020. – 230 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фан. док.дисс. –Тошкент, 2021. – 290 б. Orifjonova G.R. O'zbekiston muzeylarining innovatsion tajribasi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: "Lesson-press" nashriyoti, 2023. – 332 b.

ssenariylarini shakllantirish masalalari tadqiqi (Rossiya madaniyatshunoslik instituti), muzeylarda hozirgi globallashuv sharoitida an'ana yoki innovatsion rivojga e'tibor qaratishga oid izlanishlar (Rossiya xalqaro turizm akademiyasi) muzeyshunoslikka oid g'oyalarning muzey innovatsiyasida aks etish masalalari (Sankt-Peterburg davlat madaniyat instituti, Rossiya) tashrifchilar bilan ishlashga oid art terapiya dasturlarni ishlab chiqish (Rus davlat muzeyi, Rossiya) hamda badiiy muzeylarda art terapiya dasturlarni qo'llash (A.S.Pushkin nomidagi Davlat tasviriy san'at muzeyi, Rossiya) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, O'zbekiston muzeylari uchun innovatsion ahamiyat kasb etgan bolalar muzeyi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonda fan muzeylarining shakllantirish tendensiyalari (O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston), virtual muzeylar va raqamli texnologiyalarning O'zbekiston muzeylariga tatbiqi (Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston), kompleks muzey yaratishda innovatsion loyihalarning yangicha talqini (Shon-sharaf muzeyi, O'zbekiston), innovatsion muzey yaratish jarayonida muzey konsepsiyasi va ekspozitsiyaga oid loyihalarni mahalliy va xorijlik yetuk fan sohasi olimlari ishtirokidagi muhokamasi masalalari (O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi, O'zbekiston), O'zbekistonning xorij muzeylaridagi kolleksiyalari o'rganilishi, O'zbekiston moddiy madaniy merosini muzeylashtirishga oid innovatsion loyihalar, O'zbekistonda innovatsion muzeylar, ekspozitsiya va ko'rgazmalar tadqiqi o'rganilgan (Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston).

Jahonning yetakchi muzey va ilmiy tadqiqot muassasalarida innovatsion muzeylar yaratishdagi yangi mavzular, original g'oya va yondoshuvlar, ekspozitsiya va uning dizaynini shakllantirishdagi yechimlar, tashrifchilar bilan ishlash hamda fond ishi borasidagi innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiq etilayotgan mavzuga tegishli adabiyotlarni davriy xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: birinchisi, mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar va ilmiy tadqiqotlar; ikkinchisi, xorijda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar:

Birinchi guruhga, mustaqillikning dastlabki yillarida muzeylar faoliyati va muzeyshunoslikka bag'ishlangan ilmiy asarlar: L.Y.Mankovskaya, M.Bekmurodov, M. Rashidov, I. Ilalov, G.Fuzailova, M. Xasanova, J.X.Ismailova, L.G.Levteyeva va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlardir³. Bu guruhga «Moziydan sado» jurnalida nashr etilgan qator ilmiy maqolalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ularda sohadagi muammolar bo'yicha yetakchi muzeyshunos mutaxassislar, jumladan J.Ismoilova, N.Habibullayev, Q.Inoyatov, R.Almeyer, E.V.Rtveladze, R.Fatxullayev, L.Levteyeva, I.M.Jabborov, D.Rahimova,

³ Маньковская Л.Ю. Бухара: музей под открытым небом. – Ташкент, 1991. – 255 с.; Бекмуродов М., Рашидов М. Музейшunoslik. – Тошкент, 2006. – 102 б.; Илалов И. Музееведение. – Ташкент: Муסיка, 2006. – 357 с.; Фузаилова Г., Хасанова М. Музееведение. – Ташкент, 2008. – 192 с.; Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музеи, галереи, арт центры Ташкента. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2017. – 234 б.; Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. -160 b.

R.Qayumov, G.Dresvyanskaya, Sh.Vohidov, J.Yoqubov, D.A.Qurbonovalarning ilmiy maqolalari⁴ shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, R.Almeyer Buxoro muzey-qo'riqxonasidagi muzey ishiga, S.Shodmonova Turkistonda tashkil etilgan sanoat va badiiy ko'rgazmalarning davriy matbuotlarda (1870-1917-yillar) yoritilishiga, D.Qurbonova temuriylar davriga oid xorijga olib chiqib ketilgan ashyolar hamda O'zbekistonning xorijdagi kolleksiyalari va ularning jahon muzeylarida to'planishiga oid atributsion ahamiyatga⁵ oid, D.Kuryazova O'zbekistondagi tarix va o'lkashunoslik ixtisosligidagi muzeylar hamda O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy-metodologik asoslariga⁶, N.O.Xushvaqov⁷ «Shahrisabz» davlat muzey qo'riqxonasi faoliyatida qo'llanilgan innovatsion faoliyatga, A.F.Ismailov⁸ O'zbekistonda fan muzeylarini tashkil etish tendensiyalariga, M.S.Muxamedova⁹ O'zbekistonning tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi omillariga, J.Z.Axmedov¹⁰ Farg'ona vodiysidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish masalasiga, G.R.Orifjonova¹¹ O'zbekiston va jahon muzeylaridagi

⁴ Альмеев Р. Музей и маркетинг // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. – № 4 (32). – С. 12-13.; Альмеев Р. Инновационные процессы в деятельности музеев Узбекистана // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2006. – С. 166-173.; Альмеев Р. Музейные инновации в Узбекистане. // Научно-практический журнал “Музей” и “Просвещение”. – Москва, 2007. – №2. –С. 47-52. Дресвянская Г.Я. Музей и общество // Мозийдан садо. – Ташкент, 2000. – № 1-2 (5–6). – С. 30-33.; Жабборов И., Рахимова Д. Замонавий музейшunoslikнинг долзарб муаммолари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 1 (7). – Б. 10-12.; Исмоилова Ж. Музей – тарих кўзгуси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 2 (18). – Б. 17-78.; Иноятлов Қ. Ватанга мухаббат шу ерда туғилади // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 3. – Б. 4-7.; Қаюмов Р. Самарқанд давлат музей кўриқхонасининг халқаро алоқалари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. – № 4. – Б. 11-12.; Левтеева Л. Юбилейные выставки в музее истории Узбекистана // Мозийдан садо. – Ташкент, 2006. – № 2 (30). – С. 34-37.; Ртвеладзе Э. Из истории Великого Шёлкового пути // Мозийдан садо. – Ташкент, 1999. – № 3. – С. 8-13.; Фатхуллаев Р. Музей ишида замонавий ахборот технологияси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2002. – № 2 (14). – Б. 8-11.; Ҳабибуллаев Н. Темурийлар тарихи давлат музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 4 (32). – Б. 5-8.; Шу муаллиф. Ўзбек музейларининг истиқболи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 1-2. – Б. 12-13.; Воҳидов Ш., Ёқубов Ж. Кичик масканларнинг улкан вазибалари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. – № 2. – Б. 18-20; Qurbonova D. Zamonaviy muzeylar tajribasida virtual galereyalarning o'ziga xosligi // «O'zbekiston zamonaviy san'atida ijodiy jarayonlar: nazariya, amaliyot, tajriba» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. – Toshkent, 2022. – B.14-19.

⁵Қурбонова Д.А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар давriga oid тарих ва маданият ёдгорликлар. Тарих фан. ном. дисс...автор. – Тошкент, 2009. – 30 б. О'ша муаллиф. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга oid коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фан. док. дисс. –Тошкент, 2020. – 230 б.

⁶ Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданият меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фан. док.дисс. –Тошкент, 2021. – 290 б.

⁷ Xushvaqov N.O. Kesh tarixi va madaniyati (“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi materiallari asosida). Tarix fan. dok. avtr. – Qarshi, 2023. – 72 b.

⁸ Ismailov A.F. O'zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O'zbekiston fanlar akademiyasi misolida). Tarix fan. dok. avtr. – Toshkent, 2023. – 69 b.

⁹ Мухамедова М.С.Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XX асрнинг II ярми – XXI аср бошлари). Тарих фан. фалсафа док. автр. –Тошкент, 2020. – 49 б.

¹⁰ Ахмедов Ж.З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданият ёдгорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар). Тарих фан.фал.док.дисс. –Тошкент, 2021. – 121 б.

¹¹ Орифжоннова Г.Р. XIX-XX аср бошларига oid Ўзбекистон этномаданият меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданият жиҳатлари. Тарих фан.фал.док.дисс. –Тошкент, 2021. – 167 б.

O‘zbekistonga oid etnografik kolleksiyalar tadqiqiga, K.S.Nishanova¹² O‘zbekiston badiiy muzeylarining rivojlanish tendensiyalariga, V.S.Fayziyeva O‘zbekiston davlat san’at muzeyi tarixiga, S.S.Baybosinova¹³ Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyatiga, A.K.Satubaldin¹⁴ Qozog‘iston muzeylari tarixiga, M.A.Yunusov¹⁵ Samarqandda muzey ishining rivojlanish bosqichlari, shakllanishiga, N.A.Axmedjanov¹⁶ Jizzax viloyati madaniy meros obyektlari va muzeylari tarixiga, B.B.Boymirzayev¹⁷ O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining arxeologiya fondi tarixiga, I.Sh.Finkelshteyn¹⁸ Tamaraxonim uy-muzeyi misolida innovatsion loyihalarni uy-muzeylar faoliyatiga tatbiq etishga oid tadqiqotlar olib borgan.

Mazkur adabiyotlarda mustaqillik yillarida O‘zbekiston muzeologiyasi va muzeografiyasining turli yo‘nalishi tadqiq etilgan bo‘lib, muzeylarning rivojlanish tarixi, kolleksiya va ashyolarning o‘rganilishi, muzey turizmi, fan muzeylari, tarixiy-madaniy obyektlarni muzeylashtirish masalariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Ammo muzeyshunoslikda innovatsiya tushunchasi, O‘zbekiston muzeylarining turli ixtisoslik kesimida, muzey binosi, konsepsiyasi, ekpozitsiyasi, muzey ishida qo‘llanilgan innovatsiyalar tadqiq etilmagan.

Xorijiy adabiyotlarda O‘zbekistonga oid muzeylarning innovatsion rivoji tadqiq etilmagan. Bundan tashqari jahon innovatsion muzeylarining o‘zi ham yangi tashkil topayotgani sababli ham dunyo muzeylarining innovatsion tajribasini tadqiq etishga ehtiyoj mavjud. Muzeylarni ixtisosliklar kesimida innovatsion rivojini B.P.Griskevich¹⁹ o‘z tadqiqotlarida tahlil qilgan. A.I.Kopitin²⁰ izlanishlarida art terapiyani barcha turlari orqali inson ongidagi travmalarga, uning psixo-emotsial holatini yaxshilashga yordam beruvchi amaliyotlarga asoslangan, ko‘plab patsiyentlarda eksperimentdan o‘tgan texnikalar bayoniga qaratilgan. Mazkur

¹² Нишанова К.С. XX – XXI асрларда ўзбекистон бадий музейларининг ривожланиш тенденциялари. Тарих фан.фал.док.дисс. –Ташкент, 2022. – 120 б.

¹³ Baybosinova S. S. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining faoliyatini o‘rganish. San‘atshunoslik fan. falsafa dok. avtr.– Tashkent, 2023. – 52 b.

¹⁴ Satubaldin A.K. Qozog‘istonda muzey ishi tarixi (1831-2020-yillar). Tarix fan.fal.dok.diss. –Toshkent, 2023. – 47 b.

¹⁵ Yunusov M.A. Samarqandda muzey ishi: shakllanish, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari (XX asrning oxiri – XXI asr boshi). Tarix fan.fal.dok.diss. –Toshkent, 2023. – 52 b.

¹⁶ Axmedjanov N.A. O‘zbekistonda XX asr o‘rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida). Tarix fan.fal.dok.diss. –Toshkent, 2023. – 50 b.

¹⁷ Boymirzayev B.B. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. Tarix fan.fal.dok.diss. –Toshkent, 2023. – 49 b.

¹⁸ Finkelshteyn I. Sh. O‘zbekistonda sayyohlik sanoatini rivojlantirish uchun memorial muzeylarning innovatsion salohiyati. Tarix fan.fal.dok.diss. –Toshkent, 2024. – 43 b.

¹⁹ Грицкевич В.П. История музейного дела до конца XVIII века. – Санкт-Петербург: СПбГИКИ, 2004. – 408 с.; История музейного дела конца XVIII – начало XX вв. – Санкт-Петербург: СПбГИКИ, 2007. – 336 с. История музейного дела новейший период (1918-2000). – Санкт-Петербург: СПбГИКИ, 2009. – 152 с.– 38 с.

²⁰ Практикум по арт-терапии / Под ред. А. И. Копытина. — СПб.: Питер, 2001. – 448 с.; Арт-терапия — новые горизонты / Под ред. А.И. Копытина. - М.: Когито-Центр, 2006. - 336 с. Копытин А.И., Богачев О.В. Арт терапия наркоманий: лечение, реабилитация, постреабилитация. – М.: Психотерапия, 2008. – 172 с.; Копытин А.И. и др. Арт-терапия жертв насилия /Сост. А. И. Копытин. - М: Психотерапия, 2009. – 144 с.; Копытин А. И. Руководство по фототерапии / А. И. Копытин — «Когито-Центр», 2009. – 16 с.; Копытин А.И., Корт Б. техники телесно-ориентированной арт-терапии. – М.: Психотерапия, 2011. – 128 с.; Копытин А. И. Групповая арт-терапия // http://gestalt.dn.ua//murojaat_sanasi.08.04.2022; Копытин А. И. Арт-терапия в работе с психиатрическими пациентами // http://gestalt.dn.ua//murojaat_sanasi.07.05.2022.

mavzuga oid psixologik maqolalar²¹ asosan J.Y.Kara²², A.I. Kopitin²³, I.M. Nikolskaya, I.V. Dobryakov²⁴, R.Chalanova²⁵, muzeylarda art terapiyani qo‘llanishiga bag‘ishlangan izlanishlar A. K. Filyakova²⁶, K.A.Volodina²⁷, L.A. Sichenkova²⁸ tadqiqotlarida uchraydi. Art terapiyaga oid ilmiy tadqiqotlar L.A.Tixonovich²⁹, V.M.Axunov³⁰, A.I.Kopitin³¹, L.A.Belozorova³²larning avtoreferatlari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bayon etilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda asosan magistrlik dissertatsiyalarida³³ art terapiyaga oid izlanishlar uchraydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda art terapiya amaliy psixologiya sohasida qo‘llansa-da, ilmiy jihatdan yetuk fundamental tadqiqotlarga muhtoj hisoblanadi. Asosan art terapiya metodlari konferensiya materiallari³⁴dagina sanoqli tarzda yoritilgan.

Art terapiya jahonning yetachi muzeylarida keng qo‘llaniluvchi metodlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazaradan olib qaraganda art terapiyaga oid tadqiqotlarni olib borish muzeyshunoslikda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

²¹ Искусство в психологии// Международный научно-практический Альманах по арт-терапии. №1. 2009. – 12 с.

²²Кара Ж.Ю. Особенности арт-терапии. Северо-Кавказский психологический вестник. № 8/3 2010. – С.48-51.

²³ Копытин А.И. Техники семейной арт-терапии. Вестник практической психологии образования №1(22) январь-март 2010. – С.97-103.; Копытин А.И. применение арт-терапии в лечении и реабилитации больных с психическими расстройствами // Медицинская психология в России. №2(13). 2012. http://www.mprj.ru/archiv_global/2012_2_13/nomer/nomer04.php#///murojaat sanasi. 14.05.2023

²⁴ Никольская И.М., Добряков И.В. Арт-терапия и ее использование в краткосрочной кризисной психологической помощи семье, пострадавшей в террористическом акте в г. Беслане // Медико-биологические и социально-психологические проблемы безопасности в чрезвычайных ситуациях. 2016. № 3

²⁵ Чаланова Р. Арттерапия в системе методов психофизической реабилитации// Лікувальна фізична культура, спортивна медицина й фізична реабілітація. № 2(46). 2019. – С.79-86.

²⁶ Филякова А. К. Арт-терапевтическая практика в художественных музеях России и Великобритании // Вестник СПбГУКИ. № 4 (17) декабрь. 2013. – С.122-125.

²⁷ Володина Ксения Андреевна. Применение арт-терапии в деятельности практического психолога в организации // Организационная психология. 2017. Т. 7. № 2. – С. 86–101.

²⁸ Сыченкова Л.А. Риски арт-терапии для инвалидов и музеев: опыт осмысления российской теории и практики // Вопросы музеологии 1 (15) / 2017. – С.17-31.

²⁹ Тихонович Л. А. Опыт исследования практики арт-терапии в XX в. игровой контекст современного искусства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Москва-2005. – 24 с.

³⁰ Ахунув В. М. Современные формы культурно-образовательной деятельности и в художественном музее (Опыт Государственного Русского музея). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Санкт-Петербург, 2006. – 32 с.

³¹ Копытин А. И. Системная арт-терапия: теоретическое обоснование, методология применения, лечебно-реабилитационные и дестигматизирующие эффекты. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора медицинских наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 52 с.

³² Белозорова Л. А. Арт-терапия как средство психокоррекции нарушении эмоциональных состояний детей-дошкольников. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. – Курск, 2011. – 26 с.

³³ Dick L. Diffusing art therapy using the innovation of social media: experiences of four rural art therapists. Thesis.– Colorado: Colorado State University Fort Collins, 2018. – 75 p.; Junita binti Nawawi. A study on the implementation of art therapy as an intervention tool used by mental health practitioners to treat traumatised children in the Klang valley.– Malaysia: Institute of Education International Islamic University Malaysia, 2007. – 27 p.; Lulit Tamene Tessema. Exploring anti-retroviral therapy (art) adherence in the context of trait emotional intelligence. – South Africa: University of South Africa, 2013. – 228 p.

³⁴ Джураева Ш. Арт-терапия в современной психологии // Ёш олимлар тадқиқотларида инновацион ғоялар ва технологияларнинг ўрни. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги миқёсида ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Т., 2018. – С.286-288.

Hozirgi kunda bu borada ilmiy izlanishlar va adabiyotlarning tanqisligi yaqqol seziladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL – 462105968 raqamli «O'zbek milliy etnomadaniy tantanavor liboslari kolleksiyasining mobil ilovasini yaratish» (2022-2023-y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – XX asr oxiri – XXI asr boshlarida O'zbekiston muzeylarining innovatsion rivojlanishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ilk innovatsion g'oyalar qo'llanilgan tarix muzeylarining taraqqiyotini tahlil qilish;

turli ixtisoslik muzeylarining tadqiqi orqali yangicha konsepsiyaga ega muzeylarni rivojlanish tarixini tavsiflash;

muzeylar me'moriy ko'rinishida innovatsiya va muzey konsepsiyasidagi g'oyaning aks etishi;

O'zbekiston muzeylarini yaratishda qo'llanilgan loyihalarning innovatsion jihatini tahlil qilish;

jahon muzeografiyasining innovatsion tahlilini dunyoning turli ixtisoslik muzeylari tajribasi misolida o'rganish;

xorij muzeylari taraqqiyotining O'zbekiston muzeylariga ta'sirini tadqiq qilish;

davlatlararo xalqaro hamkorlikning muzeylar innovatsion rivojiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish;

Yangi O'zbekiston muzeylarining innovatsion rivoji istiqbollari mavjud muammolarga yechim orqali ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XX asr oxiri – XXI asr boshlarida O'zbekiston muzeylarining innovatsion rivoji belgilangan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda muzeylarning binosi, konsepsiyasi, ekspozitsiyasi, ishlanmalari, loyihalari, ko'rgazmalar tashkil etishda qo'llanilgan innovatsion rivojini ilmiy tahlil qilish bilan belgilandi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-madaniy va qiyosiy tahlil, shuningdek, muzeyshunoslikning tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, tizimlashtirish, kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda muzeylarning innovatsion rivojlanish jarayoni uch bosqichga ajratilib: I bosqichda (1991-yildan – 2000-yilgacha) muzeylar rivojlanishida davlat bosh islohotchi vazifasini bajargani natijada tarix, memorial va uy-muzeylar ko'plab tashkil etilgani; II bosqichda (2000-yildan – 2016-yilgacha) turli ixtisoslik muzeylarining tashkil topishi bevosita sohaviy tarmoqlarning jahon miqyosida rivojlanishi natijasi ekanligi; III bosqichda (2016-yildan – 2023-yilgacha) muzeylar tashqi siyosat va diplomatiyaning madaniy qismi sifatida muhim o'ringa ko'tarilgani hamda innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan yangi muzeylar yaratilgani asoslab berilgan;

muzeylarda innovatsiya tushunchasi: muzey konsepsiyasida (Turkiya – panorama muzeylari), muzey binosida (Ozarbayjon – zamonaviy me'morlik binolari), ekspozitsiyada (Qatar – sun'iy intellekt imkoniyatlarini ekspozitsiyada qo'llash, Dubay – gologramma, immersion ko'rgazma, mapping shou texnologiyasiga asoslangan ekspozitsiyalar yaratish) hamda tashrifchilar bilan ishlashga oid dasturlarda aks etishi (Rossiya – muzey pedagogikasi) natijasida har bir davlatning muzey yaratishda o'z "tashrif qog'ozi" shakllangani asoslangan;

muzeylarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash evolyutsiyasi uch bosqichda taraqqiy etib: I bosqichda muzeylar internetdan foydalana boshlaganligi hamda virtual reallik texnologiyalarining boshlang'ich bosqichlari tatbiq etila boshlanishi (1990-yillarning boshidan – 2000-yillarning o'rtalarigacha); II bosqichda onlayn muzeylarni 3D formatda ko'rsatish texnologiyasi, muzeylar mobil ilovalardan keng foydalanishi (2005-2020-yillarda), COVID-19 pandemiyasi davrida virtual ko'rgazmalar va onlayn tadbirlarga o'tilishi; III bosqichda muzeylar sun'iy intellektni (AI) qo'llayotgani (2023-yildan to bugungi kungaga kelib) natijasida yangi ixtisoslikdagi innovatsion muzeylarning yaratish imkoniyati oshgani isbotlangan;

jahon muzeylarining innovatsion binolari tahlili natijasida: tarixiy binoga ega muzeylardan Luvr muzeyi (Fransiya, Parij) – muzey ma'muriy binosining shisha piramida shaklida, Guggenxaym muzeyi (AQSh, Nyu-York) – abstrakt san'atni eslatuvchi spiral shaklida, Heydar Aliyev markazi (Ozarbayjon, Boku) – organik shaklda, Qatar milliy muzeyi (Qatar, Doha) – landshaftning zamonaviy va qadimiy elementlar bilan uyg'unligi, ya'ni "sahro guli" deb nomlangan ohaktosh shaklida, Soumaya muzeyi (Meksika, Mexiko) – shaffof metallidan yasalgan burchaksiz konstruksiya, Singapur fan va san'at muzeyi (Singapur) – "lotus" shaklida, Gilam muzeyi (Ozarbayjon) – gilam shaklida, Boku zamonaviy san'at muzeyi (Ozarbayjon) – konstruktivizm uslubida, Nur Olam muzeyi (Qozog'iston) – dumaloq shar shaklida, Kelajak muzeyi (Dubay) – ko'z ba epigrafik bezak shaklida, Shon-sharaf muzeyi (O'zbekiston) – yer shari shaklidaligi orqali innovatsion ko'rinishga ega binolar muzeyga tomoshabinlarni jalb etishning bosh omili ekanligi asoslab berilgan;

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi jahondagi islom muzeylari: Dohadagi Islom san'ati muzeyi (Qatar), Qohiradagi Islom san'ati muzeyi (Misr), Istanbuldagi Islom san'ati muzeyi, Islom sivilizatsiyalari muzeyi (Turkiya), Kuala Lumpurda Islom san'ati muzeyi (Malayziya), Sharjadagi Islom sivilizatsiyasi muzeyi (BAA) bilan taqqoslanganda mazmun-mohiyati bilan dunyodagi yagona o'xshashi yo'q markaz sifatida shakllangani, muzey konsepsiyasining jahon olimlari ishtirokida shakllantirilgani, milliy me'morlik an'analari asosida yaratilgan binosining o'ziga xos shakli, muzey dizayniga xorij kompaniyalarining (Fransiya, Turkiya kabi) jalb etilganligi O'zbekiston muzeylarining innovatsion rivojlanish istiqbollari sifatida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Muzey konsepsiyasi, ekspozitsiyasi, binosi, muzey ishi va tashrifchilar bilan ishlashda qo'llanilgan innovatsion g'oya va loyihalar orqali O'zbekistonda muzeografiyasining rivojlanish istiqbollari ko'rsatib berilgan.

O‘zbekiston muzeylarining innovatsion rivoji turli ixtisoslikdagi muzeylar misolida barcha ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarning o‘ziga xos umumiy va xususiy jihatlari, miqdor va sifat darajasi aniqlangan.

Oliy o‘quv yurti talabarlari uchun tarix, muzeyshunoslik, san’atshunoslik ixtisoslik fanlari doirasida o‘quv adabiyotlar, ma’ruzalar tayyorlashda foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi zamonaviy muzeyshunoslik, shuningdek, tarix fanida e’tirof etilgan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, muzey sohasiga doir adabiyotlar, ijtimoiy fanlar sohasiga oid tadqiqotlar, O‘zbekiston va xorij muzeylarining innovatsion tajribasi muzey binolari, konsepsiya, ekspozitsiya, muzey ishi va tashrifchilar bilan ishlashdagi loyihalar misolida o‘rganilganligi, ularni saqlash, tadqiq etish va namoyish etishga doir yangi asosiy qoidalar va normativ hujjatlar hamda arxiv materiallari kabi birlamchi manbalarga asoslanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Muzeyshunoslik kafedrasida negizida tashkil etilgan «Muзей pedagogikasi» yo‘nalishi talabalariga «Art terapiya» kabi mutaxassislik fanlarini o‘qitishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, XX asr oxiri – XXI asr boshlariga oid O‘zbekiston va xorij muzeylari innovatsion tajribasini o‘rganish, konsepsiya, ekspozitsiya, muzey binosi, muzey ishi va tashrifchilar bilan ishlashdagi innovatsion loyihalarni o‘rganish va tahlil etish orqali O‘zbekiston muzeylarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining bajarilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr oxiri – XXI asr boshlariga oid O‘zbekiston muzeylarining innovatsion rivoji masalalarini o‘rganish asosida quyidagi natijalar joriy etilgan:

O‘zbekistonda muzeylarning innovatsion rivojlanish jarayoni uch bosqichga ajratilib, I bosqichda tarix, uy-muзей, memorial muzeylar tashkil topganligi, davlat bosh islohotchi ekanligi, milliy me’morchilikda muзей binolari qurilganligi, ekspozitsiyada kompleks metod qo‘llanganligi; II bosqichda profilga muassasa muzeylari qo‘shilganligi, kreativ g‘oyalar qo‘llanganligi, ansambl, illyustrativ, tematik metodlar qo‘llanganligi; III bosqichda muzeylar soni (80 dan –130 taga) ortganligi, mapping shou, gologramma, smart texnologiyalarga oid tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-759 – IV sonli qarorini tayyorlashda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2023-yil 13-iyuldagi 24-12/5-son dalolatnomasi) hamda O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyining yo‘lko‘rsatgichini yaratishda (O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ma’lumotnomasi 2024-yil 12-fevraldagi 30/5-20492/24-son dalolatnomasi) foydalanilgan. Natijada muзей konsepsiyasidan kelib chiqqan holda turli ixtisoslik muzeylarida saqlanayotgan kolleksiya va ashyolar xavfsizligini ta’minlashga oid choralar belgilangan qaror qabul qilindi va muassasa

muzeylarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda prokuratura tarixiga oid muzey yo‘lko‘rsatgichi yaratildi.

muzey binosining muzey konsepsiyasi va ekspozitsiyani namoyish etishdagi o‘rni hamda ekspozitsiyani shakllantirishda qo‘llanilgan innovatsion loyihalar yuzdan ortiq respublika va xorij muzeylari tajribasini tahlili orqali tadqiq etilishi natijasida O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 21-yanvardagi 27/2-11-22-sonli dalolatnomasi), Jizzax viloyati prokuraturasi tarixi muzeyi (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 18-fevraldagi 27/2-28-22-sonli dalolatnomasi) hamda Jizzax viloyati Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasining 2022-yil 6-sentabrdagi 3/1-803-sonli dalolatnomasi) ekspozitsiyasi yaratildi. Natijada huquq-tartibot organlarining muassasa muzeylari tashkil etildi, yangi konsepsiyasi yaratildi va ekspozitsiyasida innovatsion loyihalar qo‘llanildi.

jahon muzeylari innovatsion tajribasi Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya, Qatar, Dubay va boshqa davlatlar muzeografiyasi misolida tahlil qilingan va o‘zaro integratsiya natijasida Ozarbayjon davlat madaniyat va san’at universiteti Muzeyshunoslik kafedrasini ixtisoslik yo‘nalishlarida O‘zbekiston muzeylari tajribasiga oid ilmiy adabiyotlar xorijiy adabiyot sifatida o‘quv jarayoniga tatbiq etildi (Ozarbayjon davlat madaniyat va san’at universitetining 2023-yil 7-martdagi dalolatnomasi). Natijada mazkur universitet talabalari xorijiy adabiyotlar bilan tanishish orqali jahon muzeologiyasidagi ilmiy izlanishlar haqida tasavvurga ega bo‘ldilar.

Jahon muzeylarining innovatsion binolari tahlili natijasidan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti «Muzey pedagogikasi» ixtisosligi talabalari uchun «Art terapiya» o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Badiiy akademiyasining 2022-yil 16-martdagi IP03640057-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada «Art terapiya» fani o‘quv-uslubiy majmuasini takomillashtirish, soha bo‘yicha talabalarning turli yoshdagi va tipdagi tashrifchilar bilan ishlash, muzey auditoriyasini kengaytirish bo‘yicha innovatsion dasturlarni qo‘llash yuzasidan ko‘nikmasini rivojlantirishga erishilgan.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qoshidagi muzey loyihasi va jahondagi Islom muzeylari taqqoslanib, ularning alohida yutuqlari, xorij va mahalliy mutaxassislarning amalga oshirishi ko‘zda tutilgan loyihalar, muzey ekspozitsiyalari orqali dallilanishi asosida hamda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining «O‘zbekiston tarixi» kanali orqali «Taqdimot» ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 26-apreldagi 40-42-854-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston muzeylari innovatsion rivojiga oid ilmiy tahlillar teletomoshabinlarning dunyoqarashini boyitish va bu sohada kengroq tasavvurga ega bo‘lishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, 28 ta ilmiy-ommabop maqolalar, tezislar xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan 12 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan iborat to'rt bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 222 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O‘zbekiston muzeylarining ixtisosliklar kesimida tadrijiy takomillashuvi**» deb nomlangan birinchi bobida XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida tarix va turli ixtisoslik muzeylarining konsepsiyasi va rivojlanishidagi o‘ziga xos innovatsion jarayonlari tahlil qilingan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan to bugunga qadar tashkil etilgan yangicha konsepsiya va g‘oyaga ega muzeylarni quyidagicha tasniflash mumkin. Tasnif tashkil etilgan muzeylarning g‘oyaviy jihatdan keng ko‘lamligi va mazkur ixtisoslikdagi muzeylar yirik va son jihatidan ko‘pligiga qarab guruhlarga bo‘lishga asoslanadi. Tadqiqotimiz jarayonida ularni 1) tarix; 2) san‘at; 3) sport; 4) tabiiy-ilmiy; 5) memorial; 6) uy-muzeylar kabi ixtisosliklari sifatida tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Demak, ularning ichida eng yirigi **tarix ixtisosligidagi muzeylar** ekanligi, uning ma‘lum bir hudud, sohaga oid tarixni tadrijiy tarzda tizimli ravishda aks ettirishni ko‘zda tutishi va shu yo‘nalishdagi osori-atiqalarni to‘plashi, tadqiq etishi, saqlashi va namoyish etishi bilan ko‘rinib turibdi. O‘z navbatida mazkur muzeylar tarix fanining sohalariga ko‘ra ham tarmoqlarga bo‘linadi.

a) tarix muzeylari: bu ixtisoslikdagi muzeylarga O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining filiali Toshkent tarixi muzeyi va boshqalarni kiritish mumkin.

b) arxeologik muzeylar – qazishmalar natijasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini tadqiq etadigan, saqlaydigan va namoyish etadigan muzeylar hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Termizda arxeologik muzey tashkil etilgan bo‘lib, bundan tashqari ochiq osmon ostidagi arxeologik obyektlar muzeylashtirilishi natijasida va bu kabi obyektlar qoshida muzey tashkil etilishi orqali mazkur yo‘nalishdagi muzeylar soni ortib bormoqda. Bu kabi muzeylarga Mingo‘rik va Fayoztepa ochiq osmon ostidagi muzeylardagi hamda Shodmalik ota majmuasida joylashgan arxeologiyaga oid muzeylarni ham kiritish mumkin.

v) muassasa tarixi muzeylari – asosan vazirliklar, muassasa, tashkilotlar qoshida tashkil etilgani uchun ham ikkinchi nomi sohaviy-idoraviy yoki muassasa muzeylari deb nomlanadi. Aynan mana shu ixtisoslik muzeylari O‘zbekistonda katta tezlikda rivojlanayotgan muzeylar hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi muzeylar sirasiga Soliqlar tarixi muzeyi (2007), Qurolli Kuchlar muzeyi (2010), Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi (2018), Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasida tashkil qilingan «Shon-sharaf» muzeyi (2021), O‘zbekiston kasaba uyushmalari tarixi muzeyi (2021), O‘zbekiston Bosh Prokuraturasining O‘zbekiston

prokuraturasi tarixi muzeyi (2022), Jizzax viloyati prokuraturasi tarixi muzeyi (2022), Jizzax viloyati Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi (2022) va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur toifadagi muzeylarning o'ziga xos xususiyati qayta tashkil etilishi, ekspozitsiyasi moderinizatsiya qilinishi va reekspozitsiyaga tez-tez uchrashida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda harbiy muzeylar tarixiga oid muzeylar ko'p sonli va yetakchi ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

g) viloyat tarixi va madaniyati muzeylari – mazkur muzeylarning aksariyati o'lkashunoslik muzeylari negizida tashkil topgan muzeylar hisoblanadi. Ilk tashkil etilgan mazkur ixtisoslik muzeylariga misol sifatida Navoiy viloyati tarixi va madaniyati muzeyi (1992), Amir Temur nomli Moddiy madaniyat tarixi muzeyini (1996) sanab o'tish mumkin.

d) islom dini tarixi, masjidlar, ziyoratgoh, muqaddas qadamjolaridagi islom olamining buyuk namoyondalari hamda tasavvuf tarixiga bag'ishlangan muzeylar – so'nggi yillarda yuzaga kelgan ixtisoslik muzeylari hisoblanib, ziyorat turizmi taraqqiyoti natijasida tashkil etilgan.

e) O'zbekiston hududida tug'ilib kamolga yetgan, jahon tamadduni rivojiga ulkan hissasini qo'shgan tarixiy allomalarga bag'ishlangan muzeylar. Qo'qondagi Buyuk allomalar faoliyatiga bag'ishlangan muzey, Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022-yilda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning O'zbekistonga tashrifi munosabati bilan tashkil etilgan Xiva shahrida Muhammad Amin Inoq madrasasida «Allomalar muzeyi» shular jumlasidandir.

O'z o'rinda **san'at ixtisosligidagi muzeylariga** ham alohida to'xtalib o'tish joizdir. Unda tasviriy san'at, haykaltaryoshlik, amaliy san'at, adabiyot, teatr, musiqa va san'atning boshqa turlari tarixini yoki ma'lum bir hudud yoki davrga oid san'atga oid ashyolarni tadqiq etish, to'plash, saqlash va yoritishni maqsad qilgan muzeylar hisoblanadi³⁵.

a) badiiy ixtisoslikdagi muzeylar – asosan tasviriy san'at, haykaltaroshlik, amaliy san'at va dizaynga oid eksponatlarni o'zida saqlaydi va namoyish etadi³⁶. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bu ixtisoslikdagi muzeylar O'zbekistonda tashkil etilgan mazkur muzeylar sirasiga Gilamlar muzeyi (1991), Buxoro tasviriy san'ati muzeyi (1991), Xorazm Amaliy san'ati va tarixi muzeyi (1992), Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura muzeyi (1997), Ikuo Xiroyama nomidagi xalqaro madaniyat karvonsaroyi (2004), O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi (2004), Toshkent Fotochilar uyi, X.Devonovning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan doimiy ko'rgazma (2004), Boysun amaliy san'at muzeyi (2006) va boshqalarni kiritish mumkin.

b) adabiyot muzeylari – san'atning adabiyot turiga mansub moddiy va nomoddiy ashyolarni to'plash, o'rganish va kelajak avlodga yetkazib berishni maqsad qilgan ixtisoslik muzeylari sanaladi. Andijon viloyati adabiyot va san'at muzeyi 1990-yil 1-yanvarda o'z faoliyatini boshlagan. Andijonning muhtasham

³⁵ Orifjonova G. O'zbekistonda san'at ixtisosligidagi muzeylarning rivojlanish tarixi. // Oriental art and culture – Kokand, 2022. – Volume 3, Issue 4 – P. 748.

³⁶ Orifjonova G.R. O'zbekiston muzeylarining innovatsion tajribasi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: «Lesson-press» nashriyoti, 2023. – B. 43.

me'moriy obidalar – masjidi Jome' va Ahmadbek xoji mehmonxonasida joylashgan³⁷.

v) *teatr muzeylari* – teatr tarixiga oid haqiqiy materiallar va hujjatlarni to'playdigan va saqlaydigan ilmiy, madaniy va ma'rifiy muassasalar hisoblanadi. O'zbekiston milliy drama teatri muzeyi teatr binosining uchinchi qavatida 2017-yilda ochilgan. Mazkur muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlar teatr faxriylarining hayoti va ijodiga, xalq aktyor va aktrisalari faoliyatiga bag'ishlangan³⁸.

g) *kino san'atiga oid muzeylar* – kinoning rivojlanish tarixi, ma'lum bir hududning kino san'ati haqidagi ma'lumotlarni tizimli to'playdigan va namoyish etadigan muzeylardir. Respublikamizdagi eng yosh – O'zbekiston kino san'ati muzeyi 2005-yil 22-fevralda ochildi. 1970-yillardan yig'ila boshlagan kino arxiviga oid materiallar muzeyga asos bo'ldi. O'zbekiston kino san'ati fidoiylaridan bir guruhining tashabbusi bilan bir necha o'n yilliklar eksponatlar, fotosuvratlar, ssenariylar, montaj varaqlari va boshqa hujjatlar to'planib, 30 mingdan ortiq saqlash biriligidan iborat katta xazinaga aylandi³⁹.

d) *musiqa muzeylari* – musiqiy madaniyatning tarixiy yodgorliklarini to'playdigan, saqlaydigan, o'rganadigan va namoyish etadigan muassasalar. «Xorazm musiqasi tarixi» ko'rganmasi Qozikalon (1905-yil) madrasasida 1993-yildan ish boshladi. Toshkent davlat konservatoriyasi qoshidagi Musiqa asboblari muzeyining (1934-yilda asos solingan) rasmiy ochilishi 2004-yilda bo'lib o'tdi⁴⁰.

Asosan sport tarixi yoki uning biror davriga oid, ma'lum bir sport turini o'zida ifoda etadigan muzeylar **sport muzeylari** hisoblanadi. Bunga Olimpiya shon-shuhrati muzeyini keltirishimiz mumkin. Muzey 1996-yili Olimpiya o'yinlarining 110 yilligiga bag'ishlab ochilgan⁴¹.

O'zida ilm-fan yutuqlarini namoyish etuvchi, tabiat bilan bog'liq jarayonlarni aks ettiruvchi, to'plovchi saqlovchi muzeylar – **tabiiy-ilmiy muzeylar** hisoblanadi. Unga tibbiyot muzeylari, fan va texnika muzeylarini keltirish mumkin⁴². Shunday muzeylardan Xorazm tabiat muzeyi (2010-yilda tubdan reekspozitsiya qilingan), Mirzo Ulug'bek nomidagi Toshkent shahar planetariysi (2003), Astronomiya muzeyi (2009), Aloqa tarixi muzeyi (2009), Politexnika muzeyi (2015), Kosmonavtika muzeyi (2021), Ekologiya muzeyi (2017), Orol dengizi tarixi muzeyi (2019) kabi muzeylarini keltirib o'tish mumkin.

Muhim tarixiy voqealiklar va shaxslar xotirasini abadiylashtirish hamda kelajak avlodga yetkazib berish maqsadida yaratiladigan muzeylar – **memorial muzeylar** sanaladi. Ularga Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi (1992; 2007) Bobur va jahon madaniyati muzeyi (1993), Cho'lpon muzeyi (1997), Mirzo Ulug'bek

³⁷ Юсупов Д. Андижондаги «Арк ичи» музейлар мажмуаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 200. – № 3. – Б. 6.

³⁸ Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 89-90.

³⁹ Бобожонова Г. Ўзбекистон кино санъати музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 14.

⁴⁰ Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 190-191.

⁴¹ Левтеева Л. Тошкент музейлари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2009. – № 3. – Б. 33.

⁴² Orifjonova G.R. O'zbekiston muzeylarining innovatsion tajribasi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: «Lesson-press» nashriyoti, 2023. – B. 45.

muzeyi majmuasi (2010), Imom al-Buxoriy xotira muzeyi, Is'hoqxon Ibrat muzeyi (2016), Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi (2017), Islom Karimov muzeyi (2017), Abdulla Oripov muzeyi (2018), Abdulla Qodiriy muzeyi (2019), Erkin Vohidov muzeyi (2019) kabilar ochildi.

Uy-muzeylar – biror tarixiy ahamiyatga molik shaxs istiqomat qilgan turarjoyini muzeylashtirish orqali mazkur shaxs xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi (1990), Mukarrama Turg'unboyeva uy-muzeyi (1993), Tamaraxonim uy-muzeyi (1994), Yunus Rajabiy uy-muzeyi (1997), Ogahiy (1999), Qovoq uy-muzeyi (2005), Sulaymon Yudakov uy-muzeyi (2008), Saltanat Siddiqova uy-muzeyi (2009), Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi (2016), Erkin Vohidov uy-muzeyi (2017), Mutal Burhonov uy-muzeyi (2017), Sharof Rashidov uy-muzeyi (2017), Xaziniy muzeyi (2019), Abdulla Qodiriy uy-muzeyi (2019), Mahmudxo'ja Behbydiy uy-muzeyi (2021) kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston muzeylarida innovatsion rivoj dastlab g'oyaviy ko'rinishda ya'ni muzeylar konsepsiyasida aks etgan. Mustaqillik yillarida tarix, badiiy, tabiiy-ilmiy ixtisoslikdagi memorial va uy-muzeylar ko'plab ochildi. Tarixga ixtisoslashgan muzeylar barcha tipdagi muzeylar orasida yetakchilik qildi. Buning asosiy sababi O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishi, keng jahon ommasiga o'z tarixini namoyish etish ehtiyoji bilan bog'liq. Bundan tashqari tarixiy, memorial va uy-muzeylar asosan tarixiy shaharlar va shaxslar yubileylari arafasida ko'plab tashkil etilgan. Bugungi kunda muassasa muzeylari ham rivojlanish yo'lidan bormoqda.

Dissertatsiyani ikkinchi bobi «**Innovatsiya – muzey rivojining asosi sifatida**» deb nomlanib, unda muzey binosidagi innovatsion g'oyaning konsepsiya va ekspozitsiyani yoritishdagi o'rni hamda O'zbekiston muzeylarini yaratishda qo'llanilgan innovatsion loyihalar tahlili yoritilgan.

Muzeyda innovatsiya tushunchasi keng qamrovli hisoblanadi. Shu o'rinda dastlab innovatsiya atamasiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Ko'pincha innovatsiya tushunchasi ixtiro, biror-bir yangi narsani yaratish, qo'llash sifatida tushuniladi.

Aslida innovatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga nazar tashlasak, «innovatsiya» tushunchasi lotincha «innovato» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yangilanish» yoki «takomillashtirish» degan ma'noni anglatadi; agar so'zma-so'z tarjima qilinadigan bo'lsa «innovatio» – «yo'nalish bo'yicha o'zgarish» degan ma'noni bildiradi⁴³.

Muzeylar faoliyati odatda ikki xil shaklda, ya'ni an'anaviy va noana'anaviy ko'rinishda yuritiladi. An'anaviy muzeylarda, muzeylarning ekspozitsiyasi o'zining jiddiy ichki strukturasi va mazmun mohiyatiga ega. Ekspozitsiyalarning tanlab olinishi, qo'yish usuli, muzeyning tashkiliy ishlari ularning barchasi yillar davomida o'zgarib kelgan tartiblarga bo'ysunadi. Bunday muzeylarning asosiy vazifasi ekspozitsiyalarni to'plash, saqlash va namoyish etishdan iborat⁴⁴.

⁴³ Дебур М. Инновации в современном музее: от теории к практике // Культура. – №3. 2018 // <http://www.relga.ru/Environ/WebObjects/tgu-www.woa/wa/Main?textid=5556&level1=main&level2=articles>

⁴⁴ Димогло М.В. Современность и традиционность музейного содержания. «Архитектон: известия вузов». – № 18. Приложение Июль 2007.

Noan'anaviy muzeylar yangi yo'nalish va yangi talqin asosida shakllangan muzeylar bo'lib, ular uchun tartib va qoidalarning chegarasi yo'q. Bunday muzeylarda tashrifchi axborotlarni his-tuyg'u orqali o'ziga singdirib oladi. Mazkur muzeylar nafaqatgina nodir axborotlarni saqlovchi fond, balki interaktiv hududga ega, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beruvchi materiallarga boy bo'ladi⁴⁵.

Muzeyning innovatsion binosi deganda faqatgina konsepsiyani aks ettirgan zamonaviy joyni tushunmaslik kerak. Masalan, badiiy muzeylardan Fransiyadagi d'Orse muzeyida vokzal binosi muzeyga aylantirilishi, Turkiyada Yassi oda – demokratiya orolchasi muzeylashtirilgani ham innovatsiya hisoblanadi. Muzey konsepsiyasidan kelib chiqqan holatda maxsus qurilgan innovatsion binoga ega muzeylarga Fransiyadagi Luvr muzeyi, AQShdagi Guggenxaym muzeyi, Qatar Milliy muzeyi, Meksikadagi Soumaya muzeyi, Singapur san'at fanlari muzeyi, Qozog'istondagi Nur Olam muzeyi, Ozarbayjondagi Gilam muzeyi, Haydar Aliyev markazi, Dubay shahridagi Kelajak muzeyi, Dohadagi Qatar milliy muzeyi, O'zbekistondagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Shon-sharaf muzeylari binosini kiritish mumkin. Muzey muvaffaqiyatini binodan keyingi o'rinda uning konsepsiyasi asosida yaratilgan ekspozitsiya tashkil etadi. Muzey xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiya rassom dizaynerlar tomonidan ikki bosqichdagi badiiy konsepsiya ishlab chiqiladi.

O'zbekiston muzeylari ekspozitsiyasida qo'llanilgan innovatsion yechimlar turli ixtisoslik muzeylari tajribasi kesimida tahlilga tortilgan. Bugungi kunda muzeyshunoslikda ichki bozor talablaridan kelib chiqqan holda ikkita dizaynerlik firmasi faoliyatini alohida e'tirof etish kerak. Talab bor joyda taklif va raqobat bo'ladi, mazkur ma'suliyati cheklangan jamiyatlar tarixchi, muzeyshunos, san'atshunoslar, dizaynerlarni jalb etgan holda o'z jamoalarini shakllantirgan holda qator muzeylarni yaratmoqdalar. Jumladan, «Interstellar group» Shon sharaf davlat muzeyi, Ichki ishlar vazirligi tarixi muzeyi, Milliy gvardiya tarixi muzeyi, Davlat xavfsizlik xizmati tarixi muzeyi, Geologiya muzeyi, O'zbekiston kasaba uyushmalari tarixi muzeyi, O'zbekfilm muzeyi kabi muzeylarni muvaffaqiyatli tarzda yaratgan. «Ziynat Design» tomonidan esa Xivadagi Ma'mun akademiyasi, Sherg'ozixon madrasasidagi Madrasa tarixi muzeyi, Allomalar muzeyi, Ogahiy uy-muzeyi, Jizzaxdagi Sharof Rashidov memorial muzeyi, Xamid Olimjon va Zulfiya muzeyi, Kosmonavtika muzeyi, Jizzax viloyati prokuratura organlari tarixi muzeyi, Jizzax viloyati Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi, Kelesdagi Toshkent tumani tarixi muzeyi, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligining tarix muzeyi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi muzeyi, Bosh prokuraturaning O'zbekiston prokuratura organlari tarixi muzeyi, Yozuvchilar uyushmasi muzeyi, Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida Abdulla Oripov nomidagi muzeylari yaratilgan. O'zbekiston muzeylarini yaratilishida bir qator muzey direktorlari, olimlar, san'atshunos, muzeyshunos mutaxassislar, dizayner rassomlar mavjud.

⁴⁵ Исмаилова Ж.Х. Замонавий музейшunoslik asoslari. – Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – Б. 104.

Umuman olganda, muzeyshunoslikda innovatsiya keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Muzeologiya bo'yicha qaraladigan bo'lsa, ilmiy tadqiqotlarda jumladan, amaliy loyihalar, dissertatsiya va ilmiy adabiyotlardagi yangicha nuqtayi nazardagi yondoshuvlar innovatsiya hisoblansa, muzeografiyada esa muzey binosi, konsepsiyasi, ekspozitsiya va tashrifchilar bilan ishlashdagi kreativ loyihalar, muzey ishidagi zamonaviy texnologiya yutuqlarini qo'llash innovatsiya hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida jahonda XX asr oxiri – XXI asr boshlariga oid muzey binolarini yaratishda muzey konsepsiyasini binoda aks ettirish, noodatiy muzey binolarini loyihalash kabi jihatlar tahlil qilindi. Jumladan, Luvr muzeyi (Fransiya, Parij) – mashhur shisha piramida shaklida, Guggenxaym muzeyi (AQSh, Nyu-York) – o'ziga xos spiral shaklida, Heydar Aliyev markazi (Ozarbayjon, Boku) – organik shaklda, Qatar Milliy muzeyi (Qatar, Doha) – landshaftning zamonaviy va qadimiy elementlar bilan uyg'unligi shaklida, Soumaya muzeyi (Meksika, Meksika) – shaffof metallardan yasalgan burchaksiz konstruksiya, Singapur san'at fanlari muzeyi (Singapur) – «lotus» shaklida, Gilam muzeyi (Ozarbayjon) – gilam shaklida, Boku zamonaviy san'at muzeyi (Ozarbayjon) – konstruktivizm uslubida, Nur Olam muzeyi (Qozog'iston) – dumaloq shar shaklida, Kelajak muzeyi (Dubay) – ko'z shaklida, islomga oid bo'lgan epigrafik naqsh shaklida, Qatar milliy muzeyi (Qatar) – Sahro guli deb nomlangan ohaktosh shaklida, Temuriylar tarixi davlat muzeyi (O'zbekiston) – saroy ko'rinishida, Qatag'on qurbonlari tarixi muzeyi (O'zbekiston) – qatag'onga uchragan oilaning xonadoni ko'rinishida, Shon-sharaf muzeyi (O'zbekiston) – yarim shar shaklida ekanligi manbalar asosida ochib berildi.

Muzey ekspozitsiyasini yaratishda esa dastlabki yillarda illyustrativ metod muzey interyerini bezashda foydalanildi, rassomlarning mahobatli asarlari bilan shakllantirildi. Ilk muzeylarda asosiy ekspozitsiya yaratish metodi sifatida kompleks metod yetakchilik qildi. O'zbekistonda yangi muzeylarni tashkil etishda talabning mavjudligi takliflarni vujudga keldi. Raqobat muhiti asosan «Interstellar group» hamda «Ziynat Design» o'rtasida yuz berdi. Bu esa o'z-o'zidan innovatsion g'oyalarni qo'llashga ehtiyoj tug'dirdi. Muzey yaratishda innovatsion g'oyalarni, noodatiy yechimlarni, kreativ g'oyalarni qo'llash 2017-yildan keyin tashkil topgan muzeylar ekspozitsiyasi va binosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ilmiylik va innovatsiya muzeylarni yanada boyitishga va qiziqarli bo'lishiga, tomoshabinni jalb etishiga, ichki va tashqi turizmni rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

O'zbekiston muzeylarida an'anaviylikdan innovatsion bosqichga qanday va nima hisobidan erishildi? Mazkur savolga javob beradigan bo'lsak, mustaqillikning dastlabki yillarida muzeylar konsepsiyasida an'anaviylik ilmiylikda namoyon bo'ldi, xronologik izchillik asosidagi ekspozitsiyalar yaratish O'zbekiston muzeylari uchun an'anaga aylandi. 2000-yillardan keyin O'zbekistonda turli sohalar rivoji kuzatildi va buning natijasida mazkur sohalarga oid muzeylar yaratilishni boshladi. Bu konsepsiyadagi ilk innovatsion o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xorij muzeylari tajribasini ko'rish, kuzatish va yutuqlarini qo'llash imkoniyati vujudga keldi. Shu tariqa an'anaviy muzeylar yaratishdan chekinib, innovatsion muzey yaratishga ehtiyoj oshdi.

Muzey binosi va ekspozitsiyasining muvaffaqiyatli yechimi tomoshabinlarni muzeyga eng ko‘p jalb etadigan omil hisoblanadi. Shu sabab ham konsepsiya bilan uyg‘unlashtirilgan muzey binolari tashrifchilar e‘tiborini tezda o‘ziga tortadi. Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston muzeylarida innovatsion yondoshuv muzey binosi, konsepsiyasi, ekspozitsiyasi va dizaynida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi konsepsiyasi o‘zining yurtimiz tarixini batafsil yorituvchi akademik yondashuvga ega konsepsiyasi, XX asrning 90-yillari uchun yaratilgan ekspozitsiyasi innovatsion ahamiyatga ega bo‘lgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyining binosi XX asrning oxirlarida muzeylar binosidan keskin farq qilgan hamda o‘rta asr saroylarini eslatuvchi noodatiy yondoshuvga ega ekanligi bilan innovatsion ahamiyat kasb etgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyining binosi an‘anaviy uslubga ega bo‘lsa-da, lekin kelgusida yaratiladigan muzeylar uchun etalon vazifasini bajara olmadi. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining binosi ham an‘anaviy turarjoylarni – o‘zbek hovlisi obrazini yaratgan holda qatag‘onning minglab oilalarga ko‘rsatgan ta’siri, dahshatini aks ettirgan. XX asrning 90-yillarida asosan konsepsiya va muzey binosiga katta e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, 2017-yildan keyingi yaratilgan muzeylarda dizayndagi kreativlikka ahamiyat qaratilmoqda. So‘nggi yillarda yaratilgan Shon-sharaf muzeyi dizaynidagi innovatsion yondoshuvlar ko‘pchilik tashrifchilarning e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Dissertatsiyani uchinchi bobi «**Jahon muzeylari innovatsion tajribasi tadqiqi**» deb nomlanib, unda jahon muzeografiyasining innovatsion tahlili Rossiya, Turkiya va Ozarbayjon va boshqa ko‘plab davlatlarning tajribasi misolida tadqiq qilingan hamda xorij muzeylari taraqqiyotining O‘zbekiston muzeylariga ta’siri o‘rganilgan.

Jahonda har bir davlatning muzey yaratishda o‘ziga xos bo‘lgan tajribasi, muzeylarni shakllanishi bo‘yicha bosib o‘tgan yo‘li, ekspozitsiya yaratishda o‘z tashrif qog‘ozi bor. Bu bevosita o‘sha davlat ilmiy elitasining tajribalari natijasi hisoblanadi. Rossiya muzeylarining aksariyatida eksponat tarixiy muhitdan uzilgan holda namoyish etiladi, bu Yevropa muzeylariga ham xos xususiyat hisoblanadi. Mazkur tamoyil orqali eksponatning individual o‘ziga xosligi, ornamentlari bilan tomoshabinga yaqindan tanishish imkoniyati beriladi. Bu kabi yondoshuv Fransiya muzeylarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Jahonning innovatsion muzeylari deganda, bino, konsepsiya, ekspozitsiya, tashrifchilar bilan ishlash, muzey ishini yo‘lga qo‘yishda ijodkorona yondoshuv, eng oxirgi texnika jihozlari bilan ta‘minlanganlik, g‘oyaviy jihatdan orginallik tushuniladi. Har bir davlatning o‘zini bosib o‘tgan tarixiy yo‘lidan kelib chiqqan holda muzey yaratishda o‘ziga xos innovatsion usullari bor. Rossiya muzeylari o‘zining ilmiylik asosidagi akademik yondoshuvi, noyob eksponatlari, tashrifchilar bilan ishlashdagi ta‘limiy yondoshuvlari bilan ustun hisoblansa, Turkiya muzeylari raqamli texnologiya vositalari yordamida ekspozitsiya yaratishi, doimiy o‘zgaruvchi va yangicha ixtisoslik muzeylarining tashkil topishi bilan innovatsion ahamiyatga ega hisoblanadi. Ozarbayjon muzeylari esa milliylikka urg‘u bergan holda zamonaviylikni o‘zida mujassamlashtirishni afzal biladi.

Muzey ishini eksponatlarni ro'yxatga olish, fondlarda ish yuritish, konservatsiya, restavratsiya va ekspertiza laboratoriyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar muzeyida fond ashyolari raqamlashtirilgan. Yirik muzeylarda fondlarda ham ekspozitsiya yaratish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Ermitaj, Rossiya etnografiya muzeyi, Ozarbayjondagi Gilam muzeyi oltin fondlariga tomoshabinlar tashrif buyurishlari mumkin. Bundan tashqari Gilam muzeyi o'zining gilam va zargarlik mahsulotlarini restavratsiya va konservatsiya qilishda ilg'or texnikalar bilan jihozlangan restavratsiya xonalariga ega hisoblanadi.

Hozirda O'zbekiston muzeylari ham jahonning ilg'or muzeylari yutuqlarini qo'llashga harakat qilmoqda. Bu muzey faoliyatining turli jabhalarida namoyon bo'layotganini ko'rish mumkin. O'zbekiston muzeylari orasida ham jahon muzeylarining ilg'or tajribalariga taqlid qilish, ekspozitsiya va ko'rgazmalardagi g'oyalarga ergashish holatlari uchraydi. Fikrimizga dalil sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining yangilangan ekspozitsiyasidagi ot tasviri mavjud installyatsiya Ozarbayjon Gilam muzeyidan ilhomlanib yaratilgan. Mazkur installyatsiya Ozarbayjon Gilam muzeyining reekspozitsiyadan oldin ham mavjud bo'lgan muzey tashkil etilgan vaqtdan beri o'zgarmagan ko'rgazmasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriy memorial muzeyidagi adib hayot yo'lidagi muhim voqealarni ifodalagan vaqt devori g'oyasi ham Bokudagi Haydar Aliyev markazidagi muzey ekspozitsiyasini eslatadi. Jahonda ko'plab tarixiy g'alabalarni yorituvchi konsepsiyaga ega muzeylar talaygina. Shunday muzeylardan biri Shon-sharaf muzeyining tashkil etilishi O'zbekiston muzeografiyasi tarixida katta iz qoldirdi. Mazkur muzey konsepsiyasi innovatsion loyihalar asosiga qurilgan, shu kunga qadar qo'llanilgan muzeylardagi ekspozitsiya ko'rgazmalardan noodatiy yechimi bilan ajralib turadi. Mazkur muzey o'zining ekspozitsiyadagi qo'llanilgan innovatsion g'oyalari bilan O'zbekiston muzeyshunosligini bir pog'ona yuqoriga ko'tardi.

G'alaba bog'i va Shon-sharaf muzeyi bir-birini uzviy to'ldiruvchi konsepsiyaga ega eng innovatsion metodlar, kreativ g'oyalar, texnologik qurilmalardan foydalanilgan bugungi kundagi O'zbekiston muzeyshunosligi rivojini yaqqol ko'rsatib beruvchi muzeydir. Muzeyni yaratishda Turkiya muzeografiyasida keng qo'llanilgan kompleks yondoshuvga murojaat qilingan, barcha g'oyalar yaxlit konsepsiyani yaratishga xizmat qilgan.

Bundan tashqari yangi muzeylar yaratishga bo'lgan intilish ham kuchaymoqda, ayniqsa oldin mavjud bo'lmagan, yangi konsepsiya va ixtisoslikka ega, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda yaratilayotgan muzeylar talaygina. Fikrimizga dalil sifatida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida amalga oshirilishi mo'ljallangan reekspozitsiya jarayonlarini hamda yangi tashkil etilayotgan, butunlay elektron muzey bo'lishi ko'zda tutilgan Imom Buxoriy muzeyini sanab o'tish mumkin. Mazkur loyihalarga Turkiyaning «Outdoor factory» shirkati boshchilik qilmoqda. Ushbu shirkat «Yangi O'zbekiston bog'i» me'moriy yechimini amalga oshirgan. Shirkat o'z faoliyatini

2010-yilda boshlagan bo‘lib, nafaqat Turkiyada balki ko‘plab xorijiy davlatlarda muzeylar yaratgan. Jumladan, Yassiada Ozodlik va demokratiya muzeyi, Chanaqqal’a G‘alaba muzeyi, 5-yanvar Adana Ozodlik muzeyi, Usmoniya shahri muzeyi, 15-iyul Demokartiyasi muzeyi, Mustaqillik urushi g‘alaba muzeyi, Musiqa muzeyi, Din tarixi muzeyi, Sinan me‘morlik muzeyi, Sport muzeyi, Tarixiy avtomobillar muzeyi va boshqa muzeylarni aytib o‘tish mumkin.

Har bir davlatning muzey yaratishda o‘z tajribasi bor, bu bevosita shu davlatning bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, muzeylarida to‘plangan osori-atiqalari, moddiy-madaniy boyliklari bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlar keyinchalik muzeografiyada har bir davlatning o‘ziga xos uslubini shakllanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Rossiya muzeylari o‘zining boy kolleksiyasi bilan faxrlanib akademik tamoyilga ega muzeylar tashkil etish an‘anasidan boradi. Muzeyning ta‘limiy funksiyasi mazkur davlat muzeylarida yetakchilik qiladi. Turkiya muzeylari esa «davrlar osha sayohat»ni afzal ko‘radi. Zamonaviy texnologiya yutuqlarini an‘anaviy metodlar bilan uyg‘un qo‘llash, kuchli raqobat bozorida samarali va noodatiy mahsulot yaratishga intilish birinchi o‘rinda turadi. Ozarbayjon muzeylarida esa biz milliy qadriyatlarni kreativ shaklda namoyish etish uyg‘unligini ko‘ramiz.

Xorij muzeylarining tajribasining eng ilg‘or yutuqlarini milliy an‘ana va merosga yo‘g‘rilgan holatda yangi muzeylar yaratish holati kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda yaratilgan muzeylar konsepsiyasi, binosi, ekspozitsiyasini shakllantirishda bu jihat yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mahalliy mutaxassislar bilan birgalikda xorijiy soha vakillari hamkorlikda yangi muzeylar yaratilishi davom etmoqda. Jumladan, Shon-sharaf muzeyi, fransuz va turk mutaxassislari bilan yaratilayotgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qoshidagi muzeyi, Turkiyaning «Outdoor factory» shirkati boshchiligida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida amalga oshirilishi mo‘ljallangan reekspozitsiya jarayonlarini butunlay elektron muzey bo‘lishi ko‘zda tutilgan Imom Buxoriy muzeyini sanab o‘tish mumkin. 3D loyihalar, mapping shoular vositalarida boyitilgan ekspozitsiyalar O‘zbekiston muzeylarining istiqboldagi innovatsion muzeylarini tashkil qilishi kutilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida muzey yaratish, ekspozitsiyalarni shakllantirishda O‘zbekiston muzeylariga Rossiya muzeylarining ta’siri katta bo‘lgan. Ilmiylikka asoslangan, xronologik izchillik asosidagi, mavzuli ekspozitsiyaga bo‘ysundirilgan, milliy an‘analar, tarixni aks ettiruvchi, boy madaniy merosni namoyish etishni ko‘rsatuvchi muzeylar ko‘plab yaratilgan. 2000-yillardan boshlab esa muzeylar ekspozitsiyada noodatiylikka, boshqa muzeylardan farqli jihatlariga urg‘u berishga, faqatgina shu muzeygagina xos orginal g‘oyalarni qo‘llashga katta e‘tibor berila boshladi. 2017-yildan keyingi davrda muzey yaratishda innovatsiyalar keng qo‘llanila boshladi. Turkiya muzeylari tajribasining ta’siri sezilarli oshdi. Xorijiy mutaxassislar muzey yaratishga jalb etila boshladi, mahalliy mutaxassislar uchun esa ko‘plab yangi muzeylarni yaratilishi amaliyotda nazariyani qo‘llash vazifasini bajardi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**O'zbekiston muzeylarining innovatsion rivojlanish istiqbollari**» deb nomlanib, unda xalqaro hamkorlikning O'zbekiston muzeylari faoliyatiga ta'siri hamda innovatsion muzeylarning loyihalari tahlil qilingan.

Muzeylarning innovatsion rivojiga bevosita xalqaro aloqalarning o'zni nihoyatda katta bo'lgan. O'zaro tajriba almashishi, xorij muzeylari yutuqlarining tahlili va tatbiqi O'zbekiston muzeylarining innovatsion loyihalarni qo'llashiga sababchi bo'ldi. Ilmiy tadqiqotchilik, ko'chma ko'rgazmalar, arxeologik qazishmalar hamda muzey xodimlarini malaka oshirish sohalarida asosiy hamkorlik aloqalari olib borildi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan O'zbekiston Prezidentining Fransiya va Germaniyaga tashrifi chog'ida tashkil etilgan yirik ko'rgazmalar yurtimizning boy tarixi va madaniyatini keng jahon ommasiga namoyish etishda muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari Venetsiya biennialarida O'zbekiston pavilonlarining tashkil etilishi ham muhim voqeliklardan hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsion muzeylar yaratishda ham qator urinishlar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, Islom sivilizatsiyasi markazi qoshidagi va O'zbekiston davlat san'at muzeyini fikrimizga dalil sifatida keltirib o'tish mumkin. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi muzeyi ham mazkur yo'nalishdagi muzeylar tajribasiga tayangan holda yurtimizda islom tamadduni tarixini, madaniyat va san'atimizni namoyish etuvchi zamonaviy muzey yaratish bo'yicha vazifa qo'yilgan. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Toshkentning mashhur Hazrati Imom majmuasi hududidagi 7,5 gektarlik maydonda barpo etilmoqda. Bino uzunligi 161 metrni, eni esa 118 metrni tashkil etib, uch qavatdan iborat bo'ladi. Markazidagi gumbaz balandligi 67 metrni tashkil etadi. Bino 1,8 gektar maydonda barpo etilib, jami foydalanish hududi 42,0 ming kv.metrni tashkil etadi.

Markaz tarkibidagi muzey ekspozitsiyasini shakllantirish va uni eng zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida namoyish etish maqsadida Fransiyaning «Wilmotte & Associés» va «Avesta Group» kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda jami 15 ming kv.metr, shundan 8,5 ming kv.metrli ko'rgazma zaliga ega Islom sivilizatsiyasi tarixi muzeyining konsepsiyasi hamda 9 mavzudagi 866 eksponat, 162 multimedia mahsuloti hisobidan shakllantirilgan ekspozitsiya loyihasi ishlab chiqilgan.

Tarixchi va sharqshunos olimlar, yetakchi me'morlar va hunarmandlardan iborat muvofiqlashtirish kengashi fikriga ko'ra ravoqlarda joylashtiriladigan manzaralar tashrif buyuruvchilarga o'zbek xalqining boy tarixi, buyuk ajdodlari hayoti va faoliyatlarini hikoya qiladi. Shonli tariximiz to'g'risida dastlabki tasavvurni shakllantiradi.

Bugungi kunda jahonning innovatsion muzeylarida tashrifchilar bilan ishlashda, ularning psixologik holatini yaxshilashda art terapiya metodlari keng qo'llanilmoqda. Har qanday zamonaviy muzey ekspozitsiyasi, noyob kolleksiyalar tomoshabin uchun bir martalik tashrif buyurish xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Muzey doimo tashrifchilarni o'ziga jalb etish xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ko'plab jahon muzeylari muzey pedagogikasi va andragogikasi dasturlaridan keng foydalanadilar. Fikrimizga dalil sifatida Rus muzeyi tajribasi alohida ta'kidlab o'tish lozim. Muzey kolleksiyasi asosan tasviriy san'at asarlaridan iborat bo'lib, muzey xodimlari ekspozitsiya bilan uyg'unlikdagi turli yoshdagi va muammolar ega insonlarga doir terapiya dasturlarini ishlab chiqqanlar.

San'at sehrli ta'sir kuchiga ega. Mingyillar davomida san'at insonni rivojlanishga turtki berib kelgan, uning badiiy didini o'stirgan, dunyoqarashini kengaytirgan, ongini kamolotga boshlagan. Har doim insonning aqliy, ma'naviy va moddiy dunyosini boyitishga, go'zallashtirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda san'at turlaridan davolash vositasi sifatida foydalaniladi. Asosan, tibbiyot va psixologiya sohalarida keng qo'llaniladigan san'at yordamida insonni davolash art terapiya deb nomlanadi.

Jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi sharoitida, mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda inson ongiga turli yo'llar bilan ta'sirning o'sib borishi, har davrdagidan ham ko'proq o'zini anglashga bo'lgan ehtiyojning yuksalishi art terapiya metodlariga bo'lgan talab o'sishiga olib kelmoqda. Art terapiya eng qadimgi davrlardan beri odamzodga tanish bo'lgan, uning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojiga samarali va bezarar ta'sir ko'rsatuvchi, qiziqarli psixokorreksion metodlar yordamida insonning psixo-emotsional holatini yaxshilanishiga yordam beruvchi davolash usuli hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonning rivojlangan muzeylari amaliyotida art terapiya keng qo'llaniladi. Endilikda muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlaydi, o'rganadi va targ'ib etadi, bu funksiyalarga qo'shimcha ravishda rehabilitatsion markaz vazifasini ham bajarmoqda. San'at azal-azaldan inson ongini kengaytiruvchi vositalaridan hisoblangan. Shu nuqtayni nazardan olib qaraganda muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashda art terapiyaning ahamiyati katta. Jahonning yirik Rossiya etnografiya muzeyi, Kunstkamera, Rus muzeyi, Chirk kompleks-badiiy terapevtik studiyasi, Avstraliya milliy galereyasi, Art Brut muzeylari, Outsider san'ati muzeyi, Overtachi muzeyi, Intuit markazi kabi muzeylari o'z faoliyatida art terapiya dasturlarini keng qo'llaydi. O'zbekiston muzeylari amaliyotida ham art terapiya dasturlaridan foydalanish muzeylar rivojini ta'minlaydi.

O'zbekistonning turli ixtisoslikdagi muzeylari konsepsiyasidan kelib chiqqan holda art terapiya metodlari asosidagi kichik va katta yoshdagi tashrifchilar bilan ishlashga doir maxsus dasturlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, tarix ixtisosligidagi muzeylardan O'zbekiston tarixi davlat muzeyida ertakterapiya metodlari orqali maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilar bilan «O'z ertagimizni yaratamiz» nomli dastur ishlab chiqilgan holda pozitiv orzularga dasturlash mumkin. Katta yoshdagi insonlar bilan ishlashda esa «O'zim-o'zimga arxeolog» nomli bugungi kunda keng tarqalgan art raskopka amaliyotlarini o'tkazish mumkin. Art terapiya dasturlarini amalga oshirishda maxsus mutaxassis, art terapevt, psixolog bilan hamkorlikdagi loyihalar yoki shu sohaga qiziqqan va malaka oshirish kurslarida o'tgan muzey mutaxassislari yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi konsepsiyasi, bino tuzilishi va ekspozitsiyasidan kelib chiqqan holda teatr

terapiyasi metodlarini kichik yoshdagi tashrifchilar bilan ishlashda qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan qo'rquvlardan aziyat chekadigan bolaning yengil qo'rquvlari bilan ishlashda, jamoa bilan moslasha olmaydigan bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda kichik sahna ko'rinishlar orqali qo'rqmas, mard, jasur sarkardalar obrazini his qilish orqali ulardagi ong osti dasturlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Katta yoshdagi ishtirokchilar bilan rasstanovka metodi orqali jamoaviy tarzda muammolarga yechim berish uslubi ko'proq mos tushadi.

Badiiy ixtisoslikdagi muzeylarda art terapiyaning izoterapiyaga oid ko'rinishlarini qo'llashning imkoniyatlari cheksiz hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at muzeyida avangard rassomlarining asarlari saqlanadi, mazkur asarlar bilan neyrografika amaliyotini bog'lash mumkin. Dastlab ekspozitsiyadagi asarlar, avangardizm haqida batafsil tushuncha beriladi, undan so'ngra neyrografika mavzusi bilan bog'lanadi. Tashrifchilarning savollaridan kelib chiqib neyrografikani bir turi tanlanadi va amaliy mashg'ulotlar o'tiladi. Bundan tashqari ong va ong osti bilan tasvir yaratish, chizish orqali ishlaydigan barcha metodlarni mazkur muzeyda qo'llash imkoniyati bor. Fototerapiya orqali orzular bilan ishlash, vizualizatsiya metodlarini uyg'unlikda qo'llash mumkin.

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida art terapiyaning amaliy ya'ni qo'l mehnati yordamida bajariladigan qo'rquv, xafagarchiliklar bilan ishlash texnikalarini o'tkazish uchun mos sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xalqaro hamkorlikning rivojlanishi bevosita muzeylarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Islom sivilizatsiyasi muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeylari binosi, konsepsiya hamda ekspozitsiyasini yaratishda xorijiy muzeyshunoslar bilan mahalliy muzeyshunoslarning o'zaro integratsiyasini vujudga keltirdi. Jahon tajribasini O'zbekiston muzeylariga qo'llash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida mahalliy mutaxassislarining ham xalqaro miqyosda faoliyat olib borishi uchun bir tajriba sanaladi.

XULOSA

XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida O'zbekiston muzeylarida innovatsion rivoji bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekistonda muzeylarning innovatsion rivojlanish jarayoni uch bosqichda kechganini ko'rish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-yildan 2000-yilgacha). Mazkur davrda muzeylarda innovatsiya muzeyning konsepsiyasida namoyon bo'lgan. Natijada O'zbekistonda tarix, uy-muzey, memorial muzeylar ko'plab tashkil etila boshlagan. Milliy tarixga bo'lgan yangicha nuqtayi nazar paydo bo'lgan. Muzeylar tashkil etishda davlat bosh islohotchi vazifasini bajargan. Milliy me'morchilik an'analari uyg'unligi asosidagi muzey binolari qurilgan. Ekspozitsiya xronologik izchillik, kompleks metod asosiga qurilgan.

Ikkinchi bosqich (2000-y.y. 2016-y.y.). Mazkur bosqichda asosan oldin mavjud bo'lmagan turli ixtisoslikka oid hamda muassasa muzeylarning tashkil topishini kuzatish mumkin. O'zbekiston muzeylari mavzu jihatidan boyidi ekspozitsiyada kreativ g'oyalarni qo'llashga urinishlar ko'zga tashlandi.

Ekspozitsiyada metodlarning xilma-xilligi ko'zga tashlandi. Ansambl, illyustrativ, tematik metodlardan keng foydalanilgan. Tarixiy binolarda ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish ko'zga tashlanadi. Muzeylarning xalqaro aloqalari yo'lga qo'yilgan va natijada xorij muzeylarining tajribasi o'rganilib muzey ishi takomillashtirilgan. Fondlarni raqamlashtirish jarayoniga katta e'tibor qaratilgan.

Uchinchi bosqich (2016-yildan bugungi kungacha). Mazkur davrda yangi muzeylarni ochilish jarayoni ikki baravarga o'sdi. Ekspozitsiyada innovatsion g'oyalarni qo'llash asosiy o'ringa ko'tarildi. Konsepsiya mavzulari rang-barang tus oldi. Mahalliy ekspozitsioner dizaynerlar bilan birgalikda xorijiy mutaxassislar O'zbekistonda muzey yaratishga keng jalb qilina boshladi. Zamonaviy texnologiya yutuqlarini ekspozitsiyada qo'llashga katta e'tibor berila boshladi.

2. Mazkur davrda O'zbekiston muzeylari dastlab g'oyaviy ko'rinishda ya'ni muzeylar konsepsiyasida aks etgan. Mustaqillik yillarida tarixiy, badiiy, tabiiy-ilmiiy ixtisoslikdagi memorial va uy-muzeylar ko'plab ochilgan. Tarixiy ixtisoslik muzeylari barcha tipdagi muzeylar orasida yetakchilik qildi. Bundan tashqari tarixiy, memorial va uy-muzeylar asosan tarixiy shaharlar va shaxslar yubileylari arafasida ko'plab tashkil etilgan. Bugungi kunda muassasa muzeylari ham rivojlanish yo'lidan bormoqda.

3. Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston muzeylarida innovatsion yondoshuv muzey binosi, konsepsiyasi, ekspozitsiyasi va dizaynida ko'zga tashlandi. Konsepsiya mavzulari asosan davlatchilik tarixini ma'lum bir davrini aks ettirish, unutilgan siymolar, qatag'on qurbonlari, davlat va san'at arboblari siymosni abadiylashtirishga bag'ishlangan. Milliy tarixni aks ettirish, ilmiy va xronologik izchilik asosidagi mavzuli stendlar yaratildi.

4. Dastlabki yillarda illyustrativ metoddan muzey interyerini bezashda foydalanildi, rassomlarning mahobatli asarlari bilan shakllantirildi. Ilk muzeylarda asosiy ekspozitsiya yaratish metodi sifatida kompleks metod yetakchilik qildi.

5. 2017-yildan keyin yaratilgan muzeylar ekspozitsiyasida ansambl, raqamli texnologiyalar, turli effektlarni qo'llash kabilarga katta e'tibor berilmoqda. Gologrammalar, 3 D mapping, slayd shoular, monitorlar, touch panellar, infokiosklar vositasida ma'lumotlarni ko'rsatib berish, SMART muzeylar yaratish kabi vositalar keng qo'llanilmoqda.

6. O'zbekistonda yangi muzeylarni tashkil etishda talabning mavjudligi takliflarni vujudga keldi. Raqobat muhiti asosan «Interstellar group» hamda «Ziynat Design» o'rtasida yuz berdi. Bu esa o'z-o'zidan innovatsion g'oyalarni qo'llashga ehtiyoj tug'dirdi. Muzey yaratishda innovatsion g'oyalarni, noodatiy yechimlarni, kreativ g'oyalarni qo'llash 2017-yildan keyin tashkil topgan muzeylar ekspozitsiya va binosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ilmiylik va innovatsiya muzeylarni yanada boyitishga va qiziqarli bo'lishiga, tomoshabinni jalb etishiga, ichki va tashqi turizmni rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

7. Oliy ta'lim tizimida muzeyshunos mutaxassislar tayyorlovchi yo'nalish tashkil etilganligi, sohada oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi faoliyati yo'lga qo'yilganligi, muzeyshunoslikning fan sifatidagi taraqqiyoti, ilmiy izlanishlar natijalari ham muzeylarda innovatsion g'oyalarni qo'llash imkoniyatini kengaytirdi.

8. Mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylaridagi innovatsion rivojning asosini muzeyshunoslik fan sifatida taraqqiyoti hamda muzeylarning xalqaro aloqalarda muhim obyekt sifatidagi ishtiroki ta'minlab bergan. O'zbekiston mustaqil tashkil topgan davlat sifatida o'z tarixiy-madaniy merosini jahon hamjamiyatiga taqdim etish ehtiyoji davlatlararo diplomatik aloqalarning madaniy qismida muzeylarning o'rni va rolini mustahkamladi. Natijada dunyo muzeylari bilan tanishgan muzeyshunoslar jahon muzeylarining ilg'or tajribalarini O'zbekiston muzeylarida tatbiq etdilar.

9. Mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylari xalqaro aloqalari jadal sur'atlarda rivojlandi va muzeylar faoliyatida o'zaro hamkorlikning ijobiy natijalari o'zini namoyon qildi. O'zbekiston muzeylari faoliyati misolida bu borada olib borilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega loyihalar, ko'rgazmalar, tadqiqotlardan shuni ko'rish mumkinki, yurtimizning boy tarixi va osori-atiqalarini dunyoga tanitishda muzeylar tomonidan yo'lga qo'yilgan xalqaro aloqalarning o'rni nihoyatda katta.

10. Muzeylar o'zbek xalqining boy moddiy va ma'naviy merosini jahonga targ'ib qilishda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, bu imkoniyatlardan unumli foydalanilgan holda yanada yangi hamkorlik va aloqalarni o'rnatish, bu borada qilinayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur davrda O'zbekiston muzeylari o'ziga xos yo'lni bosib o'tdi. Innovatsion rivoj dastlab muzey ixtisosliklarida yangi muzeylar ochilishi, milliy tarixni ko'rsatib berish, yangi nuqtayi nazardagi konsepsiyani shakllantirishga qaratilgan bo'ldi, keyingi bosqichda ekspozitsiya yaratish va muzey binosida innovatsion yangiliklarni qo'llashga katta e'tibor berildi. Muzey ishida fond va ashyolarni raqamlashtirish, xodimlar malakasini oshirish, jahon muzeylari bilan o'zaro xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha innovatsion yondoshuv kuzatildi. Bugungi kunda muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashda innovatsion metodlarni qo'llash sohasida yangiliklar yaratishga muzeylar muhtoj.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi **tavsiyalarni** ishlab chiqish lozim:

O'zbekistoni muzeylari faoliyatini malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimini yo'lga qo'yish. Innovatsion metodlar, yondoshuvlar bevosita chuqur bilimlarga ega bo'lgan kadrlar muammosiga borib taqaladi. Bundan tashqari Davlat statistik yillik hisobotlarida muzey mutaxassislariga oid bo'lim mavjud. Hozirgi zamonaviy muzeylar uchun eng dolzarb bo'lgan *I bo'lim*. Informatika; *II bo'lim*. Xavfsizlik; *III bo'lim*. Yong'in xavfsizligi kabi bo'limlarni ham kiritish lozim.

Muзей ishida jumladan, yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va ekspertizasini amalga oshirishda texnika yutuqlarini joriy etgan laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish, asbob-anjomlar bilan ta'minlash, raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytish lozim;

Ekspozitsiyada texnologiya yutuqlari bilan birga g'oyaviy kreativ yaratilgan ko'rgazmalarga e'tibor qaratish. Buning asosiy sababi raqamli texnologiyalar bosh metod sifatida qo'llanilgan muzeylarda texnika vositalari bilan bog'liq ko'rgazmalar tez ishdan chiqib tomoshabinga uzoq vaqt xizmat qila olmaydi. Shu sababdan ekspozitsioner, dizaynerlar muzeyning bosh metodida kreativ g'oyalarga

ega ko'rgazmalardan foydalanib, yordamchi metodda esa texnikaga tayanilsa ekspozitsiyadagi innovatsionlik yanada oshadi.

Tashrifchilar bilan ishlashda qiziqarli o'yinlar, muzey pedagogikasi va andragogikasiga oid dasturlar ishlab chiqish, turli xildagi ekskursiya mashrutlarini yaratishda innovatsion g'oyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**РАЗОВЫЙ УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК ПРИ УЧЁНОМ СОВЕТЕ
PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ ПРИ
ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ХУДОЖЕСТВ И ДИЗАЙНА
ИМЕНИ КАМОЛИДДИНА БЕХЗАДА**

ОРИФЖОНОВА ГУЛРАНО РАВШАН КИЗИ

**МУЗЕИ УЗБЕКИСТАНА В РАЗРЕЗЕ ИННОВАЦИОННОГО
РАЗВИТИЯ (КОНЕЦ XX – НАЧАЛО XXI ВЕКА)**

**17.00.06 – Музееведение. Консервация, реставрация и сохранение
историко-культурных объектов**

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК (DSC)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2022.I.DSc/Tar221.

Диссертация выполнена в Национальном институте художеств и дизайна имени Камолiddина Бехзада.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://www.history-museum.uz>) и на информационном образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Исмаилова Жаннат Хамидовна
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Алмеев Роберт Валиевич
доктор исторических наук, профессор

Давлатова Саодат Тиловердиевна
доктор исторических наук, профессор

Салимов Арифжан Муслимович
доктор архитектурных наук, профессор

Ведущая организация:

Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится «18» март 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании разового научного совета на основе научного совета PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 по присуждению научных степеней при Государственном музее истории Узбекистана. (Адрес: 100029, г.Ташкент, улица Шарофа Рашидова дом 3, Государственный музей истории Узбекистана, Малый актовый зал.) Тел.: (99871) 239-10-83; факс: (99871) 239-44-25; e-mail: info-historymuseum@academy.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Государственного музея истории Узбекистана (зарегистрирован под номером 191-Р). (Адрес: 100029, г. Ташкент, ул. Шарофа Рашидова, д. 3. Малый зал Государственного музея истории Узбекистана. Тел.: (99871) 239-10-83; факс: (99871) 239-10-83)

Автореферат диссертации разослан «20» март 2025 года
(реестр протокола рассылки № 15 от «20» март 2025 года.)


Б.В. Хасанов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор
Д.В. Расулова
научный секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по истории, доцент
Р.Э. Халикова
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора наука (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях нынешней глобализации роль инновационных музеев в отражении национальной самобытности и богатой истории в современном виде неопределима. Перед музеями ставятся такие задачи, как исследование инновационной деятельности, быстрое привлечение внимания аудитории, рост маркетинга, цифровые технологии, образовательные программы, Сотрудничество, интерактивные экспозиции, сохранение предметов, архитектурное решение, повышение современных возможностей использования онлайн-платформ. Деятельность по применению инновационных идей и решений в крупнейших музеях мира является одним из актуальных направлений научных исследований, связанных с изучением его становления, развития и истории.

В ведущих мировых исследовательских центрах проводятся научные исследования, направленные на то, чтобы инновационная деятельность музеев обновляла форму их функционирования, применяла современные технологии и эффективно взаимодействовала с широкой аудиторией. Изучение инновационной деятельности музеев позволяет выработать рекомендации по решению вопросов, касающихся повышения эффективности музейной деятельности, качества обслуживания посетителей, стратегий, направленных на успешное внедрение новых технологий, методов и услуг в музеях, а также методов сохранения культурного наследия. В направлении музеологии видно, как развивается визитная карточка, своеобразный образ каждого государства. Это проявляется непосредственно в применении истории, национальных ценностей и достижений современности, инноваций и техники. Богатством инноваций отличается музейный опыт США, России, Германии, Франции, Катара, Турции, Азербайджана и других стран.

В последние годы в нашей стране создаются музеи, экспозиции и выставки, стремящиеся адаптировать свою деятельность к современным требованиям и возможностям, уделяя большое внимание инновационному подходу. В Узбекистане сегодня инновационная деятельность музеев является актуальным вопросом, поскольку наряду с современными технологиями и социальными изменениями музеи стремятся обновлять, развивать свою деятельность и привлекать посетителей.

В разделе «Реформы по обеспечению духовного развития и продвижению сферы культуры на новый уровень» «Стратегии Узбекистан – 2030» определены важные задачи по дальнейшему совершенствованию деятельности, связанной с сохранением, научным изучением и популяризацией культурного наследия. Актуальность темы диссертации обеспечивает то, что музеи в целом занимаются не только сохранением исторического и культурного наследия, но и внедрением в него новых, интерактивных и современных подходов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, связанных с развитием музеев, таких как Указ Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2020 года № ПФ-6000 «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества», от 31 мая 2017 года № ПФ-3022 «О мерах по дальнейшему развитию и совершенствованию сферы культуры и искусства», Постановлении президента Узбекистана от 19 декабря 2018 г. ПП-4068 «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в области охраны объектов материального культурного наследия», от 27 мая 2022 года № ПП-261 «О мерах по развитию сферы услуг в музеях» и от 30 мая 2024 года № ПП-261 «Об учреждении Государственного музея наследия джадидов», а также, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 декабря 2019 года № 1019 «Об утверждении Программы совершенствования музейной деятельности в Республике Узбекистан на 2020-2021 годы» и других нормативно-правовых актов, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетом развития науки и технологий Республики: I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии страны».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴⁶. Сегодня в развитых музеях мира проводится ряд научных исследований по

